



# OILAVIY ZO‘RAVONLIKDAN JABRLANGANLARNI HIMOYA QILISHDA HIMOYA ORDERI INSTITUTI: HUQUQIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

*Muallif: Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash  
va malakasini oshirish instituti yetakchi mutaxassisi*

*Do‘smatov Jasurbek Umidjon o‘g‘li*

## ANNOTATSIYA

Maqola oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlanganlarni himoya qilishning samarali huquqiy vositalaridan biri bo‘lgan **himoya orderi (protection order, emergency barring order)** institutining huquqiy mohiyati, normativ-huquqiy asoslari hamda qo‘llanish amaliyotini kompleks tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2023-yil 11-apreldagi Jinoyat kodeksi va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga kiritilgan o‘zgartirishlar, 2024-yil 14-noyabrdagi “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, shuningdek Oila kodeksi qoidalari qiyosiy-huquqiy usulda tahlil qilinadi.

Tadqiqot doirasida BMT CEDAW konvensiyasi, Istanbul konvensiyasi, Yevropa inson huquqlari sudining *Opuz v. Turkey* (2009), *Bevacqua v. Bulgaria* (2008), *Hajduova v. Slovakia* (2010), *Levchuk v. Ukraine* (2020) va boshqa qarorlari, MDH (Qozog‘iston, Rossiya, Gruziya, Moldova) va Yevropa davlatlari (Avstriya, Ispaniya, Buyuk Britaniya) tajribasi o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** himoya orderi, oilaviy zo‘ravonlik, maishiy zo‘ravonlik, xotin-qizlar huquqlari, due diligence, Istanbul konvensiyasi, emergency barring order, Oila kodeksi, jabrlanuvchini himoya qilish, gender tengligi, qiyosiy huquqshunoslik.



## KIRISH

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik — XXI asr inson huquqlari himoyasidagi eng dolzarb va tizimli muammolardan biri sifatida e‘tirof etilgan. BMT Bosh Assambleyasining 1993-yil 20-dekabrda 48/104-sonli Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan “Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikni tugatish to‘g‘risidagi Deklaratsiya”da ta’kidlanganidek, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik gender tengsizligining ham sababi, ham natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda har uch ayoldan bittasi hayoti davomida jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘ladi va ularning aksariyat qismi zo‘ravonlikni o‘z umr yo‘ldoshi yoki yaqin qarindoshidan ko‘radi.

O‘zbekistonda ham bu illatning miqyosi xavotirli darajada. Rasmiy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda oilaviy-maishiy zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarga 40 mingdan ortiq himoya orderi rasmiylashtirilgan. 2023-yilning dastlabki yetti oyida 21 871 nafar ayolga himoya orderi berilgan bo‘lib, shundan 84,7 foiz holat oila a‘zolari tomonidan sodir etilgan zo‘ravonlik bilan bog‘liq bo‘lgan. 2025-yilning dastlabki choragida esa 24 mingdan ortiq ayolga himoya orderi berilgan. Bu raqamlar nafaqat muammoning ko‘lamini, balki davlat va jamiyat tomonidan unga qarshi olib borilayotgan tizimli kurashning dolzarbligini ham ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda **himoya orderi (protection order)** instituti 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun bilan ilk bor joriy etildi. Mazkur institut zamonaviy huquqshunoslikda zo‘ravonlik qurbonini samarali himoya qilishning eng muhim mexanizmlaridan biri sifatida e‘tirof etilgan. Yevropa Kengashining “Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning va oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 2011-yilgi Istanbul konvensiyasining 52-moddasi davlatlardan **emergency barring orders (favqulodda taqiqlash orderlari)** ni joriy etishni, 53-moddasi esa **restraining or protection orders** (cheklov yoki himoya orderlari)ni nazarda tutishni talab etadi.



Mavzuning ilmiy va amaliy dolzarbligi bir necha jihat bilan asoslanadi:

*Birinchi*dan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida xotin-qizlar va bolalar huquqlarini ishonchli himoya qilish hamda ijtimoiy adolatni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

*Ikkinchi*dan, 2023-yil 11-aprelda qabul qilingan qonun bilan Jinoyat kodeksiga 126<sup>1</sup>-modda (oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik) hamda Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga 59<sup>2</sup>-modda kiritilib, oilaviy zo‘ravonlik mustaqil huquqbuzarlik sifatida e’tirof etildi.

*Uchinchi*dan, 2024-yil 14-noyabrda imzolangan va 2025-yil 15-mayda kuchga kirgan “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-996-sonli Qonun himoya orderi institutini bolalarga nisbatan ham joriy etildi.

*To‘rtinchi*dan, amaliyotda himoya orderini tatbiq etishda qator muammo va kolliziyalar — orderning qisqa muddati, ijro mexanizmining nomukammalligi, sudgacha “yarashuv”ning suiiste‘mol qilinishi, jabrlanuvchining uy-joy va iqtisodiy huquqlarini himoya qilish darajasining yetarli emasligi — kuzatilmoqda.

Mazkur tadqiqotning **predmeti** — O‘zbekiston Respublikasida himoya orderi instituti faoliyat ko‘rsatishi munosabati bilan vujudga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar majmuasidir. **Obyekti** — himoya orderini berish, ijro etish va nazorat qilish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar, sud va ma‘muriy amaliyot, xalqaro hujjatlar va xorijiy davlatlar qonunchiligi.

Tadqiqotning **maqsadi** — himoya orderi institutining huquqiy mohiyati va amaliy qo‘llanilishini kompleks tahlil qilish asosida O‘zbekiston qonunchiligini xalqaro standartlar moslashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.



## ASOSIY QISM: HIMOYA ORDERI INSTITUTINING HUQUQIY MOHIYATI

### 1. Himoya orderining tushunchasi va huquqiy tabiati

Himoya orderi — bu vakolatli davlat organi tomonidan oilaviy yoki maishiy zo‘ravonlikdan jabrlangan yoxud bunday zo‘ravonlik xavfi ostida turgan shaxsni himoya qilish maqsadida zo‘ravonlik sodir etgan yoki uni sodir etishga moyil shaxsga nisbatan muayyan cheklov va majburiyatlarni belgilab beruvchi maxsus yuridik hujjatdir.

Huquqiy tabiati nuqtai nazaridan himoya orderi quyidagi xususiyatlarga ega:

- **Profilaktik (oldindan ogohlantiruvchi) xarakterga** ega — u sodir etilgan huquqbuzarlikka jazo emas, balki kelgusi zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan;
- **Aralash huquqiy tabiatga** ega — bir vaqtning o‘zida ma‘muriy-huquqiy va fuqarolik-huquqiy elementlarni o‘zida mujassamlashtiradi;
- **Operativ (tezkor) xususiyatga** ega — qisqa vaqt ichida (24–72 soat ichida) chiqariladi;
- **Individual** — har bir aniq holatdan kelib chiqib chiqariladi;
- **Maxsus subyektli** — ma‘lum bir shaxsga nisbatan qo‘llaniladi.

Xalqaro doktrinada himoya orderlari ikki asosiy turga bo‘linadi:

**1) Emergency Barring Orders (EBO) — favqulodda taqiqlash orderlari** — Istanbul konvensiyasining 52-moddasida nazarda tutilgan, odatda politsiya yoki boshqa ma‘muriy organ tomonidan zudlik bilan, qisqa muddat (1–4 hafta) uchun chiqariladigan order;

**2) Civil/Criminal Protection Orders — fuqarolik yoki jinoiy himoya orderlari** — Istanbul konvensiyasining 53-moddasida nazarda tutilgan, sud tomonidan uzoqroq muddatga (3 oydan 1–2 yilgacha) chiqariladigan order.

Istanbul konvensiyasining 52-moddasiga ko‘ra, ishtirokchi davlatlar “favqulodda xavf” mavjud bo‘lgan vaziyatlarda vakolatli organlarga oilaviy zo‘ravonlik sodir



etgan shaxsni jabrlanuvchining yashash joyini yetarli muddatga tark etishga majburlash va u bilan aloqa qilishini taqiqlash huquqini berishi shart. Yevropa Kengashi Vazirlar Komitetining tushuntiruvchi hisobotida ta'kidlanganidek, "favqulodda xavf" deganda zarar yetkazilishi yaqinlashib qolgan yoki allaqachon yuzaga kelgan va qaytadan sodir bo'lishi ehtimoli yuqori bo'lgan har qanday oilaviy zo'ravonlik holati tushuniladi.

O'zbekistonda himoya orderi instituti 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan "**Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida**"gi Qonun bilan ilk bor joriy etildi. Qonunning 23–25-moddalari bevosita himoya orderini berish va ijro etish tartibiga bag'ishlangan.

Mazkur Qonunga muvofiq, himoya orderi — ichki ishlar organlari tomonidan tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizga taqdim etiladigan, tazyiqchi yoki zo'ravonga nisbatan zo'ravonlik harakatlarini sodir etishni taqiqlash, jabrlanuvchi bilan aloqa qilishni cheklash va boshqa tegishli majburiyatlarni belgilab beruvchi hujjatdir.

Qonunning **dastlabki tahririga ko'ra**, himoya orderi ichki ishlar organlari tomonidan **30 kun muddatga** beriladi va sud qarori bilan **30 kundan 1 yilgacha bo'lgan muddatga** uzaytirilishi mumkin. Yangi qonun bo'yicha bunday orderning muddati sud tomonidan 1 yil muddatgacha uzaytiriladi va himoya orderi bilan zo'ravonning jabrlanuvchi yashaydigan turar-joy maydoni yoki uning bir qismidan foydalanish, jabrlanuvchining ish joyi yoki boshqa joylarga yaqinlashishi muayyan vaqtga cheklanib, muayyan joylarda bo'lmaslik, narkologik kasallikdan davolanish kabi qo'shimcha majburiyatlar yuklatilishi mumkin.

**2023-yil 11-aprelda qabul qilingan** "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida:gi Qonun himoya orderi institutini sezilarli darajada mustahkamladi. Xususan:



- **Jinoyat kodeksiga 126<sup>1</sup>-modda** (oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik) kiritildi;
- **Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga 59<sup>2</sup>-modda** (oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik) kiritildi;
- Aybdor shaxsga nisbatan himoya orderi talablarini bajarmaganligi uchun ma‘muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan harakatlar uchun 1 yildan 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki 3 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoki 3 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilandi.

Yuqorida aytilganidek, **2024-yil 14-noyabrda imzolangan O‘RQ-996-sonli Qonun** himoya orderini bolalarga nisbatan ham joriy etdi. Mazkur Qonunga muvofiq, Ijtimoiy himoya milliy agentligi zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi, uning qonuniy vakili yoki bolani o‘z qaramog‘iga olgan boshqa shaxsning murojaati yoxud sodir etilgan zo‘ravonlik holati yuzasidan ma‘lumotlar kelib tushgan paytdan boshlab 24 soat ichida zo‘ravonlik xavfi darajasini baholaydi va natijasiga ko‘ra himoya orderini beradi yoki himoya orderini berishni rad etadi. Himoya orderi 30 kungacha beriladi va ushbu order rasmiylashtirilgan paytdan e‘tiboran kuchga kiradi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, himoya orderini berish jarayonini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

**Birinchi bosqich — murojaat etish.** Murojaat quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- (a) jabrlanuvchining shaxsiy yozma yoki og‘zaki arizasi;
- (b) qonuniy vakil orqali;
- (c) ishonch telefoniga (1146) qo‘ng‘iroq;
- (d) tibbiyot, ta‘lim muassasalari yoki mahalla institutlari tomonidan xabar berish;
- (e) huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan profilaktika ishlari natijasida aniqlash.



**Ikkinchi bosqich — xavf darajasini baholash.** Vakolatli organ ariza tushgan paytdan 24 soat ichida zo‘ravonlik xavfi darajasini baholashi shart.

**Uchinchi bosqich — order chiqarish.** Baholashdan kelib chiqib, ichki ishlar organi yoki Ijtimoiy himoya milliy agentligi himoya orderini rasmiylashtiradi. Order rasmiylashtirilgan paytdan e‘tiboran kuchga kiradi.

**To‘rtinchi bosqich — ijro etish va nazorat.** Order huquq-tartibot organlari tomonidan ijro etiladi. Zo‘ravonga uning shartlari va ularni bajarmaslik oqibatlari tushuntiriladi.

**Beshinchi bosqich — muddatni uzaytirish.** Zarurat tug‘ilganda, sud tomonidan order muddati 1 yilgacha uzaytirilishi mumkin.

#### **4. Himoya orderida nazarda tutiladigan cheklovlar**

Qonunga muvofiq, himoya orderida quyidagi cheklov va majburiyatlar nazarda tutilishi mumkin:

— zo‘ravonlikdan jabrlanuvchiga nisbatan zo‘ravonlik sodir etishni taqiqlash;

— zo‘ravonlik sodir etgan yoki uni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxsga zo‘ravonlik qurboni bilan aloqa qilishni taqiqlash;

— zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning zo‘ravonlik qurboni bilan bir xonada yoki transport vositasida yolg‘iz qolishini taqiqlash;

— zo‘ravonlik sodir etgan shaxsga zo‘ravonlik qurbonini davolash, maslahat berish, joylashtirish xarajatlarini qoplash majburiyatini yuklash;

— zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning muayyan joylarga borishini taqiqlash;

— zo‘ravonlik sodir etgan shaxsga narkologik kasallikdan ambulatoriya yoki statsionar davolanish kabi majburiyatlarni yuklash.

### **MUAMMOLAR VA AMALIYOT**

Statistik ma'lumotlar himoya orderi institutining O‘zbekistondagi amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi:



### 1-jadval. O‘zbekistonda himoya orderlari va oilaviy zo‘ravonlik bo‘yicha statistik ma’lumotlar (2023–2025)

Ko‘rsatkich	2023-yil	2024-yil	2025-yil (I chorak)
Berilgan himoya orderlari soni	40 000+	38 000+	24 000+
Ma’muriy javobgarlikka tortilganlar	–	15 427	–
Jinoiy javobgarlikka tortilganlar	809	399	–
Reabilitatsiya markazlariga joylashtirilganlar	–	–	202
Psixologik/tibbiy yordam ko‘rsatilgan	–	–	1 700

*Manba: Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari.*

Eng ko‘p oilaviy zo‘ravonlik ishlari Toshkent, Navoiy, Jizzax, Buxoro va Farg‘ona viloyatlariga, eng kami esa Qoraqalpog‘iston Respublikasiga to‘g‘ri keladi<sup>1</sup>. Bu statistika bir necha jihatdan tahlil qilinishi mumkin: yuqori ko‘rsatkichlar ham real zo‘ravonlik darajasi balandligini, ham aholining huquqiy onggi yuqoriligi va davlat organlariga ishonch yuqori ekanligini anglatishi mumkin. Past ko‘rsatkichlar esa, aksincha, latent (yashirin) zo‘ravonlik darajasi yuqoriligi va jabrlanuvchilarning murojaat etmasligini ko‘rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Amaliyotda himoya orderi institutini qo‘llashda quyidagi **muammolar** kuzatilmoqda:

#### 1. Orderning qisqa muddati va uzaytirish protsedurasining murakkabligi

<sup>1</sup> <https://gov.uz>



Amaldagi qonunchilikka muvofiq, ichki ishlar organlari tomonidan beriladigan order **30 kunga** beriladi. Xalqaro tajriba va GREVIO komiteti tavsiyalariga ko‘ra, EBO uchun 30 kun yetarli, ammo himoya orderini sud tomonidan uzaytirish protsedurasi murakkabligi tufayli ko‘pchilik jabrlanuvchilar uzaytirishni so‘ramaydi yoki uzaytirilmaydi. Bu esa “himoya bo‘shlig‘i” (protection gap) hosil qiladi.

## 2. Iqtisodiy zo‘ravonlik bo‘yicha himoyaning yetishmasligi

Amaldagi qonun jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy zo‘ravonlikni tan olishiga qaramay, amaliyotda **iqtisodiy zo‘ravonlik** holatlari kamdan-kam hollarda himoya orderi berish uchun asos sifatida qaraladi. Holbuki, oilaviy zo‘ravonlikning bu shakli ayollarning iqtisodiy mustaqilligiga jiddiy putur yetkazadi.

## 3. Yarashuv institutining suiiste‘mol qilinishi

Tergov bosqichida er-xotinlarning o‘zaro yarashganligi oqibatida ayblanuvchi tomon jazo muqarrarligini his etmay, bir yil davomida yana qayta zo‘ravonlik sodir etishi holatlari kuzatilmoqda. Bu hol Yevropa inson huquqlari sudining *Opuz v. Turkey* (2009) ishidagi xulosalari bilan bevosita bog‘liqdir: Sud bunda davlat yarashuvga kelgan jabrlanuvchining arizasini qaytarib olganligi tufayli ish qo‘zg‘atishni to‘xtatishi mumkin emasligini, chunki bunday ishlar **public interest** (jamoat manfaati)ga ega ekanligini ta’kidladi.

## 4. Uy-joy huquqi bo‘yicha kolliziyalar

Himoya orderi bilan zo‘ravonni jabrlanuvchining yashash joyidan chiqarib yuborish nazarda tutilgan, ammo amaliyotda zo‘ravon turar-joyning egasi bo‘lsa, fuqarolik qonunchiligidagi mulk huquqi normalari bilan kollik (kollizion) holat yuzaga keladi. Yevropa inson huquqlari sudi *Levchuk v. Ukraine* (2020) ishida ta’kidlaganidek, oilaviy zo‘ravonlik holatlarida zo‘ravonning uy-joydan chiqarilishi jabrlanuvchining sog‘lig‘i va huquqlarini himoya qilish uchun zarur va asoslangan chora bo‘lishi mumkin.

## 5. Bolalarning manfaatlarini hisobga olishdagi yetishmovchiliklar



Oilaviy zo‘ravonlik kuzatilgan oilada, hatto bolaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri zo‘ravonlik qo‘llanilmagan bo‘lsa ham, uning **bilvosita qurboni** bo‘ladi. BMTning Bolalar huquqlari komiteti tomonidan tasdiqlangan **General Comment No. 13** ga ko‘ra, oilaviy zo‘ravonlik guvohi bo‘lgan bola psixologik zo‘ravonlikdan jabrlangan deb qaraladi. Amaliyotda ushbu standart har doim ham hisobga olinmaydi.

### **6. Kadrlar va resurslar yetishmovchiligi**

Profilaktika inspektorlari, mahalla profilaktika inspektorlari, “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi” xodimlari yetarli darajadagi maxsus tayyorgarlikka ega emasligi muammoni murakkablashtiradi.

### **7. Reabilitatsiya markazlarining kamligi**

O‘zbekistonning ayrim hududlarida reabilitatsiya markazlari yetarli emas. Istanbul konvensiyasining 23-moddasi davlatlardan har 10 000 aholiga 1 ta o‘rin nisbatida boshpana taqdim etishni tavsiya etadi.

## **XORIJIY TAJRIBA**

### **1. Yevropa Kengashi standartlari va Istanbul konvensiyasi**

2011-yil 11-mayda Istanbulda imzolangan “**Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning va oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish to‘g‘risida**”gi Yevropa Kengashi konvensiyasi (Istanbul konvensiyasi, CETS No. 210) himoya orderlari instituti uchun eng to‘liq xalqaro huquqiy asos hisoblanadi.

### **2. Avstriya tajribasi — Emergency Barring Order pioneeri**

Avstriya 1997-yilda Yevropada birinchilardan bo‘lib Federal qonun (Bundesgesetz zum Schutz vor Gewalt in der Familie — Gewaltschutzgesetz)ni qabul qildi. Avstriyaning **Wegweisung** (chiqarib yuborish) tizimida politsiya zo‘ravonni xonadondan zudlik bilan chiqarib yuborish va 2 hafta davomida (sud tomonidan uzaytirilsa, 4 haftagacha) qaytishini taqiqlash huquqiga ega. Bu tajriba Istanbul konvensiyasining 52-moddasi uchun namuna sifatida qabul qilingan.



### 3. Ispaniya tajribasi

Ispaniya 2004-yilda “**Gender zo‘ravonlikka qarshi to‘liq himoya choralari to‘g‘risida**” (Ley Orgánica 1/2004) qonunini qabul qildi. Mazkur qonun **maxsus gender zo‘ravonlik sudlari (Juzgados de Violencia sobre la Mujer)** tashkil etishni nazarda tutadi va ularda himoya orderlari 72 soat ichida chiqariladi.

### 4. Qozog‘iston tajribasi

Qozog‘istonda oilaviy zo‘ravonlik qurbonlari uchun uch turdagi himoya orderlari mavjud: fuqarolik himoya orderlari (huquqbuzarning xulq-atvoriga maxsus talablar belgilash); oilaviy zo‘ravonlik bo‘yicha himoya orderlari (защитное предписание); cheklov orderlari (запрет на приближение). Barcha uchala holatda ham himoya orderlarining maqsadi qurbonni va zo‘ravonni o‘rtasidagi aloqani cheklash yoki taqiqlashdir.

2024-yil 15-aprelda Qozog‘iston Prezidenti Qosimjomart Tokayev xotin-qizlar va bolalarni oilaviy zo‘ravonlikdan himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan qonunni imzoladi. Ushbu qonun Jinoyat kodeksi, Oila kodeksi, Sog‘liqni saqlash tizimi to‘g‘risidagi qonun va boshqa muhim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritdi. “Saltanat qonuni” (Saltanat's Law) deb nomlangan ushbu qonun avvalgi 2017-yilgi dekriminallashtirishni bekor qilib, kaltaklash va qasddan sog‘liqqa zarar yetkazishni qayta jinoyat sifatida e‘tirof etdi.

### 5. Rossiya Federatsiyasidagi vaziyat

Rossiya qonunchiligi oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish vositasi sifatida fuqarolik himoya orderlarini nazarda tutmaydi. “Rossiya Federatsiyasida oilaviy va maishiy zo‘ravonlikning oldini olish to‘g‘risida”gi qonun loyihasiga ko‘ra, himoya orderi (защитное предписание) — politsiya mansabdor shaxsi tomonidan oilaviy zo‘ravonlik qurbonlarini himoya qilish choralarini belgilash uchun rasmiylashtiriladigan hujjat sifatida ta‘riflanadi. Ammo mazkur qonun loyihasi hanuzgacha qabul qilinmagan, bu esa Rossiyaning xalqaro standartlardan orqada qolib ketishiga sabab bo‘lmoqda.



## 6. AQSh va Buyuk Britaniya tajribasi

AQShda xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish faoliyatini muvofiqlashtiruvchi asosiy vakolatli federal organ — “Office on Violence Against Women” hisoblanadi. Uning vazifalari VAWA (Violence Against Women Act) qonuni ijrosini ta‘minlash va nazorat qilish, zo‘ravonlik, jinsiy tajovuz, uy zo‘ravonligi va inson savdosi kabi jinoyatlarni kamaytirish bo‘yicha milliy strategiyalar ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Buyuk Britaniyada esa oilaviy maishiy zo‘ravonlikka qarshi kurashish to‘g‘risidagi akt (Domestic Abuse Act 2021) qabul qilingan bo‘lib, bu oiladagi, jumladan, xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, iqtisodiy, psixologik zo‘ravonlik va boshqa turdagi tajovuz hamda unga qarshi kurashish qoidalarini qamrab oladi.

### TAKLIF VA TAVSIYALAR

O‘tkazilgan tahlil natijalari asosida quyidagi ilmiy va amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 23-moddasiga o‘zgartish kiritib, ichki ishlar organlari tomonidan beriladigan himoya orderi muddatini **30 kundan 60 kungacha** uzaytirish va sudga murojaat qilish muddatini ham mos ravishda kengaytirish.

2. Oilaviy zo‘ravonlik bo‘yicha alohida bo‘limga ega bo‘lgan **“Oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish to‘g‘risida”gi yagona kompleks Qonun** loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish. Bunda Qozog‘istonning 2024-yilgi tajribasi va Istanbul konvensiyasi standartlari hisobga olinishi lozim.

3. O‘zbekiston Respublikasi **Oila kodeksini** to‘ldirib, oilaviy zo‘ravonlik mavjud bo‘lgan oilalarda nikohni bekor qilish, alimentni undirish va bolalarni tarbiyalashga oid maxsus normalarni belgilash. Xususan, zo‘ravon ota-ona huquqlarini cheklash institutini joriy etish.

4. Yarashuv institutining suiiste‘mol qilinishini oldini olish uchun Jinoyat kodeksining 126<sup>1</sup>-moddasi bo‘yicha jinoiy ish qo‘zg‘atilgan taqdirda yarashuv



asosidagi to‘xtatishni **faqat sud tomonidan, alohida xonaga (maslahatxonaga) kirishidan oldin** mumkin deb belgilash.

5. Iqtisodiy zo‘ravonlikning aniqroq mezonlari va uning uchun himoya orderini berish asoslarini Qonunning 4-moddasida aniqlashtirish.

6. Istanbul konvensiyasini imzolash va ratifikatsiya qilish masalasini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ko‘rib chiqish (hech bo‘lmaganda kuzatuvchi mavqaida hamkorlik o‘rnatish).

7. Tashkent shahri va viloyat markazlarida **maxsus oilaviy ishlar bo‘yicha sud tarkibini** yaratish (Ispaniya namunasi bo‘yicha *Juzgados de Violencia sobre la Mujer*).

8. Profilaktika inspektorlari va sudyalalar uchun **majburiy treninglar** tashkil etish.

9. Har bir tumanda kamida 1 ta **24/7 reabilitatsiya markazi** tashkil etish va ularni etarli moliyaviy resurslar bilan ta'minlash.

10. **Yagona elektron reyestrni** ishga tushirish — barcha himoya orderlari va ularning ijrosi haqida ma’lumotlarni real vaqtda yuritish, Ichki ishlar vazirligi, prokuratura, sud va ijtimoiy xizmatlar o‘rtasida axborot almashinuvini ta’minlash.

11. Zo‘ravonlarning xulq-atvorini o‘zgartirishga qaratilgan **majburiy psixologik dasturlarni** keng joriy etish (Istanbul konvensiyasining 16-moddasi talabi).

12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining “Oilaviy zo‘ravonlik bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib chiqish amaliyoti to‘g‘risida”gi **Plenum qarori** qabul qilinishi maqsadga muvofiq.

13. **Mahalla institutining rolini** kuchaytirish: profilaktika inspektorlari, mahalla raisi hamda professional psixologlar o‘rtasidagi hamkorlikni yangi standart asosida tashkil etish.



## XULOSA

Olib borilgan kompleks ilmiy tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

**Birinchidan**, himoya orderi instituti — zamonaviy huquqshunoslikda oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlanganlarni himoya qilishning eng samarali huquqiy vositalaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Uning huquqiy mohiyati — operativlik, profilaktik xarakter va aralash huquqiy tabiat (ma’muriy va fuqarolik elementlarining mujassamlanishi) bilan tavsiflanadi. Xalqaro doktrinada bu institut ikki shaklda — Emergency Barring Orders (EBO) va Civil/Criminal Protection Orders shaklida amal qiladi.

**Ikkinchidan**, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida himoya orderi instituti 2019-yilda joriy etilgan bo‘lib, 2023 va 2024-yillardagi qonunchilik o‘zgarishlari bilan jiddiy mustahkamlangan. Statistik ma’lumotlar (2023-yilda 40 mingdan ortiq, 2025-yil I choragida 24 mingdan ortiq berilgan orderlar) institutning amaliyotda keng qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi.

**Uchinchidan**, amaliyotda mavjud **huquqiy bo‘shliqlar va kolliziyalar** quyidagilardir: orderning qisqa muddati va uzaytirish protsedurasining murakkabligi; iqtisodiy zo‘ravonlik bo‘yicha himoyaning yetishmasligi; yarashuv institutining suiiste'mol qilinishi; uy-joy huquqi bo‘yicha kolliziyalar; bolalarning manfaatlarini hisobga olishdagi yetishmovchiliklar; kadrlar va resurslar yetishmovchiligi; rehabilitatsiya markazlarining kamligi.

**To‘rtinchidan**, qiyosiy-huquqiy tahlil natijasida O‘zbekistonning xalqaro standartlar va xorijiy tajribadan ma’lum darajada orqada qolayotgani aniqlandi. Avstriya, Ispaniya, AQSh, Buyuk Britaniya tajribasi va Qozog‘istonning 2024-yilgi islohotlari (Saltanat qonuni) O‘zbekistondagi qonunchilikni mukammallashtirishning muhim manbai bo‘lishi mumkin.

**Beshinchidan**, Yevropa inson huquqlari sudining *Opuz v. Turkey*, *Bevacqua v. Bulgaria*, *Hajduova v. Slovakia*, *Levchuk v. Ukraine* va boshqa presedent



qarorlarida shakllantirilgan **due diligence (tegishli astoydillik) standarti** O'zbekiston davlat organlari uchun ham muhim metodologik ko'rsatkich bo'lishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi
4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi
5. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni,
6. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni
8. O'zbekiston Respublikasining Qonuni

### II. Xalqaro hujjatlar

9. BMT Bosh Assambleyasining 1979-yil 18-dekabrda 34/180-sonli Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan "Ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllarini tugatish to'g'risida"gi Konventsiya (CEDAW).
10. BMT Bosh Assambleyasining 1993-yil 20-dekabrda 48/104-sonli Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan "Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikni tugatish to'g'risida"gi Deklaratsiya.
11. CEDAW Komitetining 1992-yilgi General Recommendation No. 19 (Violence against women) va 2017-yilgi General Recommendation No. 35 on gender-based violence against women, updating general recommendation No. 19.
12. Council of Europe Convention on Preventing and Combating Violence against Women and Domestic Violence (Istanbul Convention), 11 May 2011, CETS No. 210.
13. United Nations Convention on the Rights of the Child (1989) va Bolalar huquqlari komitetining General Comment No. 13 (2011) on the right of the child to freedom from all forms of violence.

### III. Sud amaliyoti

14. ECtHR, Opuz v. Turkey, Application no. 33401/02, 9 June 2009.



15. ECtHR, *Bevacqua and S. v. Bulgaria*, Application no. 71127/01, 12 June 2008.
16. ECtHR, *Hajduova v. Slovakia*, Application no. 2660/03, 30 November 2010.
17. ECtHR, *A. v. Croatia*, Application no. 55164/08, 14 October 2010.
18. ECtHR, *Mudric v. the Republic of Moldova*, Application no. 74839/10, 16 July 2013.
19. ECtHR, *Levchuk v. Ukraine*, Application no. 17496/19, 3 September 2020.
20. ECtHR, *J.I. v. Croatia*, Application no. 35898/16, 8 September 2022.
21. ECtHR, *Kontrová v. Slovakia*, Application no. 7510/04, 31 May 2007.
22. ECtHR, *Osman v. the United Kingdom*, Application no. 23452/94, 28 October 1998.

#### **IV. Ilmiy adabiyotlar**

23. Logar R., Niemi J. *Emergency Barring Orders in Situations of Domestic Violence: Article 52 of the Istanbul Convention*. — Strasbourg: Council of Europe, 2017. — 64 p.
24. De Vido S. *Violence against Women's Health in International Law*. — Manchester: Manchester University Press, 2020. — 280 p.
25. Hester M., Lilley S.J. *Preventing Violence against Women: Article 12 of the Istanbul Convention*. — Strasbourg: Council of Europe, 2014.
26. McQuigg R.J.A. *The European Convention on Human Rights and the Council of Europe Convention on Violence against Women // International & Comparative Law Quarterly*. — 2018. — Vol. 67, Issue 3. — P. 691–712.
27. Niemi J., Verdu Sanmartin A. *The Impact of Vulnerability on State Obligations in Criminal Proceedings on Domestic Violence: Interpreting the Istanbul Convention and the European Convention on Human Rights // Women & Criminal Justice*. — 2024.
28. Burton M. *Legal Responses to Domestic Violence*. — London: Routledge-Cavendish, 2008. — 192 p.
29. Шерстобитов А.Е. *Защитное предписание как мера пресечения семейно-бытового насилия: сравнительно-правовое исследование // Государство и право*. — 2021. — № 4. — С. 78–91.
30. Sherzodov B., Ismatov A. *Oilaviy huquq: nazariya va amaliyot*. — Toshkent: TDYU nashriyoti, 2022. — 384 b.



31. Saidov A.X., Tashqulov J. Inson huquqlari: xalqaro va milliy standartlar. — Toshkent: Adolat, 2021. — 512 b.
32. Rustambekov I.R. O‘zbekiston Respublikasida ayollar huquqlarini himoya qilish: huquqiy mexanizmlar tahlili // O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining axborotnomasi. — 2022. — № 6. — B. 45–53.
33. Safarova Sh.P. Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishning huquqiy asoslari: yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent: TDYU, 2023.

#### **V. Internet manbalari**

34. GREVIO Reports. URL: <https://www.coe.int/en/web/istanbul-convention/grevio>
35. Council of Europe Edoc — Emergency Barring Orders. URL: <https://edoc.coe.int>
36. UN Women Knowledge Hub on Violence against Women. URL: <https://www.unwomen.org>